

## JORJ GORDON BAYRON IJODIDA JONLASHTIRISH

*Umida Xasanova Odiljon qizi*

*Namangan davlat universiteti o`qituvchisi*

*G-mail:umidaturgunbayeva22@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada Jorj Gordon Bayron qalamiga mansub ayrim poetik asarlardagi jonlantirish stilistik uslubi va uning lingvopoetik xususiyati hamda vazifasi tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** jonlantirish, ma'noni kuchaytirish, badiiy ifoda vositalari, poetik uslub.

## ВОЗРОЖДЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ДЖОРДЖА ГОРДОНА БАЙРОНА.

**Умида Хасанова Одилжон кизи.**

**Преподаватель Наманганского государственного университета**

*G-mail:umidaturgunbayeva22@gmail.com*

**Аннотация.** В статье анализируется стилистический средства персонификации в некоторых поэтических произведениях Джорджа Гордона Байрона, его лингвопоэтические особенности и функции.

**Ключевые слова:** персонификация, усиление смысла, средства художественной выразительности, поэтический стиль.

## REVIVAL IN THE WORK OF GEORGE GORDON BYRON

**Umida Khasanova is Odiljon's daughter**

**Teacher of Namangan State University**

*G-mail:umidaturgunbayeva22@gmail.com*

**Annotation.** The article analyzes the stylistic style of personification in some poetic works of George Gordon Byron, its linguistic and poetic features and functions.

**Key words:** personification, amplification of meaning, means of godly expression, poetic style.

Badiiy adabiyotni poetik istioralarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ma'lumki, ana shu poetik istioralarning xarakteri davrlar almashinuvi natijasida uzluksiz ravishda o'zgarishlarga yuz tutadi. Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, nafaqat davrlar almashinuvi, balki alohida shaxslar, ya'ni yozuvchi va shoirlar ijodida ham istioralar xarakteri bir-biridan kuchli farq qiladi. Ma'lum bir adibning adabiy tilidagi o'ziga xosliklarni ajratib ko'rsatib berish undagi istioralarni tur va turkumlarga ajratib berish degani emas. Yozuvchi ijodida istioralar ma'lum bir maqsadda ishlatiladi. Eng avvalo, ana shu istioralar adib ijodida qanday maqsadni ko'zlab ishlatilganini, adib ularni qanday sohalardan to'plaganini va nihoyat o'zidan avvalgi yozuvchilar ijodidan olingan ana shu obrazli ifoda vositalarini adib qanday talqin qilganini aniqlash lozim. Ma'lumki, an'analar ta'siriga berilmagan hech bir ijodkor yo'q. Biroq o'z shaxsiy uslubiga ega bo'lmagan taqlidgo'ylargina o'zidan oldingi yozilganlarni o'ylamasdan takrorlashadi, ular hech qanday yangilik olib kirishmaydi. Badiiy asar tahlilida an'ana masalasi odatda birinchi masala hisoblanadi, zero o'tmish asarlarini yangisi bilan solishtiribgina, o'tmishda yaratilgan usullardan o'zlashtirilganlarni yangi yaratilgani bilan solishtirish orqaligina yozuvchining stilistik va badiiy mahoratiga baho berish mumkin. Bunda odatda muallifning badiiy ifoda vositalariga yondashuv jarayonida ba'zi bir istioralardan o'ta ustalik bilan foydalanishda o'tmishdoshlaridan o'zib ketgani guvohi bo'lamiz. Bayron ijodida ham jonlantirish, metafora va qiyoslash o'zining yorqinligi bilan ajralib turadi. Jonlantirish, chunonchi, 18 asrga kelib ingliz klassik maktabi adiblari ijodida rivojlandi. Klassik yozuvchilar jonlashtirishdan poetik uslubga ko'tarinkilik, dabdaba bag'ishlash uchun foydalanishgan. Bayron ham o'z ijodida jonlantirishdan unumli foydalangan. Jonlantirish unga, ayniqsa, umumlashtiruvchi va fosh qiluvchi kuch sifatida juda qo'l kelgan. "Ingliz baxshisi" asarida, masalan, ingliz jamiyati ustidan hukmronlik qiluvchi bir illatni fosh qiladi, va bu illatni satiralarda qattiq tanqid qilishga chaqiradi, zero qonunga bo'ysunmaydiganlarning o'zlarining ustlaridan birovning kulishi va shu orqali tanqid qilinishlaridan qo'rqishi hammaga ma'lum.

When Vice triumphant holds her sov'reign sway,

Obey'd by all who nought beside obey;

When Folly, frequent harbinger of crime,  
Badecks her cap with bells of every Clime;  
When knaves and fools combined o'er all prevail,  
And weigh their Justice in a Golden Scale;  
E'en then the boldest start from public sneers,  
Afraid of Shame, unknown to other fears,  
More darkly sin, by Satire kept in awe,  
And shrink from Ridicule, though not from Law.  
Are there no sins for Satire's Bard to greet?  
Stalks not gigantic Vice in every street?  
Shall Peers or Princes tread pollution's path, -  
And 'scape alike the Laws and Muse's wrath?

Bu she'rlarda jonlantirish va metaforalar eng avvalo fikrlarni kuchaytirish umumlashtirishga xizmat qiladi: “Vice triumphant holds her sov'reign sway”, “Stalks not gigantic Vice in every street?”. Umumiy tarzdagi mavhum pollution's path metaforasiga Bayron pollution – ifloslanish so'zining eng kuchli sinonimini tanlaydi. Shu bilan bir paytda u ma'nosi kuchaytirilgan so'zlardan ham foydalanadi, ya'ni keskin, qat'iyatli harakatlarni, o'tkir va shiddatli xis-tuyg'ularni anglatuvchi wrath, shrink, sneer kabi so'zlardan foydalanadi. Natijada ma'lum bir darajada jonlantirish kasb etgan bu misralar qahr-g'azab va nafrat olovi xarakterini o'zida mujassam etadi va shu bilan birga o'zining xissiyotga boylini bilan ajralib turadi. Bayron ko'pincha, o'z jonlantirishlarida mifologik ismlardan ham foydalanadiki, bu o'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosining keng qamrovliligi va kuchliligi bilan 18 asr klassik yozuvchilaridan ancha o'zib ketgan. “Minervaning qarg'ishi” asarida Afina Pallada qaram qilingan Hindistonda inglizlarga tahdid solayotgan qo'zg'olon havfi haqida so'zlaydi:

Lo! There Rebellion rears her ghastly head,  
And glares the Nemesis of native dead; (C.M., 223-224)

Xuddi o'sha monologda Afina Angliyaga nigohini qaratar ekan yana shunday deydi:

Look last at home – ye love not to look there  
On the grim smile of comfortless despair:  
Your city saddens: loud though Revel howls,  
Here Famine faints, and yonder Rapine prowls (239-242)

Shunday qilib, Bayron qalamiga mansub birinchi satiralardayoq jonlantirish yangi, o'zgacha ma'no kasb etadi. "Chayld Harold ziyorati" asarida jonlantirishlar yangi lirik-qahramonlik mavzusiga mos keladi, ya'ni xalqlarning yo'qotilgan ozodlikning mungli dard-alamini ifodalaydi. Bayron Anarxiyani va Ozodlikni jonlantiradi (IV, 13), jamiyatning qudratli qarashlarini jonlantiradi (IV, 93), Rahm-shafqat va Jabr-zulmni jonlantiradi (III, 83), Tinchlik va Urushni jonlantiradi (III, 58), Qotillikni jonlantiradi (III, 51). Uning she'rlarida Ozodlik qayta-qayta jonlantiriladi, masalan, 1814-1816 yillarda yozilgan she'rlar turkumini olaylik:

Freedom's hand had blended them – (On the star of the "Legion of Honour", 23)  
o'zida Ozodlikning qo'lini mujassam etgan Frantsiya respublikasi bayrog'ining 3 ta rangi haqida:

And Freedom hallows with her tread  
The silent cities of the dead; (37-38)  
... but when Liberty rallies  
Once more in the regions, remember me then (Napoleon's Farewell, 17-18)

Ba'zi xolatlarda jonlantirishlar tezkorlik bilan, ketma-ket keladi va shu orqali ulug'vor jo'shqinlikni va ko'p xollarda, qoralashning, tanqidning kuchini orttirishga xizmat qiladi. "Chayld Harold ziyorati" asarining 124-125-misralarida quyidagi jonlantirishlarni ko'rishimiz mumkin: Love, Fame, Ambition, Avarice, Death, Circumstance, Hope; xuddi shu asarning 137-138-misralarida esa: Torture, Time, Love, dread Power; 108-misrada esa: Freedom, Glory, Wealth, Vice, Corruption, Barbarism, History, Tyranny, Eye, Ear, Heart, Soul, Tongue jonlantiriladi. Jonlantirish "Chayld Harold sayoxati" asarining urush manzaralarini tasvirlovchi kartinalarida tez-tez uchray turadi. Gretsiyadagi Marafon jangini eslab, Bayron ana shu mashhur jang maydonini ko'rsatib turuvchi qadimiy yodgorlikning qayerdaligini so'raydi:

What sacred Trophy marks the hallowed ground,  
Recording Freedom's smile and Asia's tear? (Ch.H. II, 90)

Jonlantirish ustiga qurilgan kinoyali qochirim esa urush olovi qamrab olgan  
Ispaniyaning butun qahramonona tasvirini yakunlash uchun ishlatiladi:

Hark! – heard you not those hoofs of dreadful note?

Sounds not the clang of conflict on the heath?

Saw ye not whom the reeking saber smote:

Nor saved your brethren ere they sank beneath

Tyrants and Tyrants' slaves? – the fires of Death,

The Bale-fires flash on high: - from rock to rock

Each volley tells that thousands cease to breathe;

Death rides upon the sulphury Siroc,

Red Battle stamps his foot, and Nations feel the shock (Ch.H. I.38)

Sirokko girdobida yeldek uchayotgan o'lim va qadam tovushlarini nafaqat ispan xalqi, balki barcha millat va elatlar eshitayotgan Urush bu misraga dahshatli ulug'vorlik ruhini bag'ishlaydi. Natijada, bosqinchilarga qarshi bosh ko'tarishga chaqiruvchi xitob (Saw ye not whom the reeking sabr smote...) juda katta ahamiyat va kuch kasb etadi.

Jonlantirishning muhim ko'rinishlaridan biri jonsiz predmetlarga yoki mavhum tushunchalarga murojaat qilishda ham o'z ifodasini topadi. Bunday xollarda bu jonsiz predmetlar va mavxum tushunchalar xuddi shoirning so'zlarini eshitish va unga javob qaytara olishdek insoniy xususiyatlarga ega boladi go'yo. "Chayld Harold sayoxati" asarida Bayron osmon va tog'larga murojaat qiladi: Sky – Mountains – River – Winds – Lake – Lightnings! Ye! (III, 96); Sevgi, Muhabbatga murojaat qiladi: Oh, Love! No habitant of earth thou art...(IV, 121; Vaqtga murojaat qiladi:

Oh Time! The Beautifier of the dead,

Adorner of the ruin – Comforter

And only Healer When the heart hath bled –

Time! The Corrector where our judgments err,

The test of Truth, Love – sole Philosopher,

For all beside are sophists...

Time, the Avenger! Unto thee I lift

My hands, and eyes, and heart, and crave of thee a gift (IV, 130)

Bu stilistik uslub klassiklar she'riyatiga to'liq mos kelardi, zero buning uchun klassik adiblarning o'z she'rlarini boshlashdan oldin san'at ilohasiga murojaat qilishlarini eslash ham kifoya. Klassik yozuvchilarning tushunishlaricha, bu kabi murojaatlar poemaga ulug'vorlik baxsh etadi va bu antik adabiyot an'analari talablariga javob beradi. Bayron lirikasida ham bu kabi murojaatlar ulug'vorlik ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jorj Gordon Bayron o'z ijodi davomida istioralardan ustalik bilan foydalangan. Bu stilistik uslublardan foydalanish orqali asarlariga kuchli bo'yoqdorlik va, qolaversa, ma'no baxsh eta olgan.

Adabiyotlar:

1. Byron. Child Harold's Pilgrimage. W.B.Conkey company publishers. Chicago, 1900.
2. Byron. English bards and Scotch reviewers. Printed for W.Milner, by Heartly and Walker, Cheapside. Halifax, 1834.
3. Byron. The curse of Minerva. Published by Gallignani. Paris, 1820.